



Bahridil Ergasheva

Fanlar akademiyasi Tarix instituti

tayanch doktoranti

bahridilergasheva5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486914>

O'ZBEK QIZLARINING IJTIMOIYLASHUV JARAYONIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR (ETNOGRAFIK TAHLIL)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiylashuv jarayoni nima ekani, o'zbek oilalarida qiz bolaning ijtimoiylashuv jarayoni qanday kechishi haqida so'z boradi. Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonida oilaning ahamiyati, ota-ona, bobo va buvilarning roli tarixiy dalillar asosida ko'rsatishga harakat qilinadi. Bu jarayonda mehnat, aql, ahloqiy tarbiyaning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, oila, qiz bola, mehnat, ijtimoiylashuv, xalq og'zaki ijodi.

Har bir tug'ilgan farzand oilasi bag'rida unib o'sar ekan avvalo u mana shu oilaga keyinchalik asta-sekin jamiyatga moslashib boradi. Bu jarayon xulq-atvor qobilyati sifatida shakllanib, uning salbiy yoki ijobiy natijasi oiladagi muhitga bevosita bog'liqdir. Ijtimoiylashuv ya'ni moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayonining natijasidir [11]. Shaxs jamiyatning a'zosi bo'lib tug'ilmaydi balki u ijtimoiylikka moyil bo'lib tug'iladi va jamiyat a'zosiga aylanadi [4. –P.149]. Bola jamiyat madaniyatini o'zlashtirmay turib, uning a'zosiga aylana olmaydi [8. –B.21]. Jamiyat madaniyatini o'zlashtirish yoki o'rgatish jarayoni ya'ni ijtimoiylashtirish tarbiya usullari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'zbek xalqining

farzand tarbiyasiga oid qarashlarida ming yillar davomida shakllanib kelgan boʻlib, ayniqsa qiz bolalarning oiladagi oʻzaro munosabatlaridan tortib to uning farzandlik, ayollik, onalik vazifalariga tayyorlash bosqichlarini oʻz ichiga olib, ushbu bosqichlarda uning jamiyatdagi ahloqiy, estetik, mehnat va ijtimoiy qadriyatlarni egallashi muhim hisoblanadi. Aytib oʻtish kerakki, bu bosqichlar albatta xalqimizning milliy tarbiya usullariga asoslangan holda amalga oshirilib, to qiz bola voyaga yetguniga qadar, yoki undan ham keyin davom etadi.

Xalqimiz orasida qush uyasida koʻrganini qilar [14] degan maqol bor. Shuning uchun ham oʻzbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayotida, qiz bola, uning tarbiyasi, or-nomusi hamisha markaziy oʻrinda turadi. Qizlarga beriladigan tarbiya jarayonida avvalo, jamiyatdagi mavjud qonun qoidalar, maʼnaviy cheklovlar asosiy oʻrinni egallaydi. Uning har bir qadami, gap soʻzi, kiyinish madaniyatiga alohida eʼtibor berilib, bular orqali oilaning maʼnaviy muhitiga baho beriladi. Oʻzbek qizlari asosan oʻz oilasida, onasi, buvi, xola, amma yoki boshqa yaqin ayol qarindoshlarining qaramogʻida ijtimoiylashadilar. Ular yordamida uy yumushlarini, tikuvchilik, toʻquvchilik, pazandalik va bola parvarishi kabi koʻnikmalarni oʻzida shakllantirib, ahloqiy-meʼyoriy tizimlarni oʻzida shakllantiradilar. Bunda albatta oilaviy marosimlar, yigʻinlar, oʻzaro suxbatlarning, xalq ogʻzaki ijodi boʻlgan maqollar, ertaklar, qoʻshiqlarning oʻrni alohida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, qiz bola ijtimoiylashuvining milliy shakllari bilan birgalikda maktab, oliy taʼlim muassasalari, shu bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning taʼsir kuchayishi natijasida bu jarayon oʻzgacha tus olmoqda. Qiz bola tarbiyasiga millat tarbiyasi sifatida qaraydigan xalqimizning milliy qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Mazkur maqolada aynan shu yondoshuvlar ijtimoiylashish jarayoni sifatida koʻrib chiqiladi.

Oʻzbek xalqida farzandga ism qoʻyish uning ijtimoiylashish jarayonidagi ilk qadam hisoblanib, unga alohida bir masʼuliyat bilan yondoshilinadi. “Humoyunnoma”da ham ushbu vaziyatni yaqqol aks etuvchi misollar mavjud.

Gulbadanbegim Boburni xotirlab “Hazrat Badaxshonga ketgan vaqtlarida Mohi Chuchuk Begim qiz tug‘dilar. Shu kecha Hazrat tush ko‘ribdilar. (Tushlarida) Faxriniso momom bilan Davlatbaxt ikkalalar eshikdan irib, bir narsa olib kelib, mening oldimga qo‘yibdilar. Hazrat bu tushning ta‘biri ne bo‘lar ekan deb ko‘p o‘yladilar. So‘ng qizning tug‘ilgani to‘g‘risidagi xabarni eshitgach, ularning har ikkalarining ismlaridan: ya‘ni birlaridan “niso” so‘zini, ikkinchilaridan “baxt” so‘zini olib, unga Baxtiniso Begim deb nom qo‘ydilar [9. –B.92]” deb yozadi. Farzandga ism tanlanayotganda albatta uning taqdiri, xulq-atvorini o‘xshashi inobatga olinadi. Demak ilk bosqich sifatida qiz bola dunyoga kelganidan tortib uning jinsiga mos ravishda munosabat o‘rnatiladi. Avvalo ism qo‘yganida oilaning katta va tajribali buvilarini yoki qizaloqning ota tarafdin buvisini ismini qo‘yish odatlari mavjud. Xususan, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida bu odat hamon davom etib kelmoqda. Andijonlik Ra‘no opa qizi Mavludaxon garchi mavlud oyida tug‘ilmagan bo‘lsada, qaynonasining xotirasiga atab qizini uning ismi bilan atashganini [12], Buxorolik Iqbola opa esa o‘z ismini buvisidan me‘ros qilib olganini [13] ta‘kidlashgan. Bu kabi holatlar har bir oilada uchragani bois, qiz bolalar tug‘ilganidan “ona qiz” maqomini oladi va unga nisbatan “ona qizim” deb murojaat qilinadi. Bu albatta qizlarning ijtimoiylashuvida ijobiy jihatni o‘zida aks etsada, juda erta yoshdan boshlab, kelajakda albatta ona bo‘lish tuyg‘usini erta shakllanishiga sabab bo‘ladi. O‘tkazilgan suxbatlar chog‘ida, qizchalardan kelajakda kim bo‘lmoqchiligi so‘ralganda, aksariyat qismi ona yoki kelin bo‘lish istagini bildirdi.

Bundan tashqari qiz bola tarbiyasida ona va buvilarning ahamiyati katta bo‘lib, ular tug‘ilganidan asosan ularning qo‘lida tarbiya topadilar, ammo 5 yoshdan boshlab sekin asta o‘g‘il bolalardan farqli tarbiya usullaridan foydalaniladi. Bolalar xatti harakatlarini asl maqsadini bilmay turib, kattalarga taqlid qiladilar [2. –P.138]. Shu boisdan qizlar yaqinlarining deyarli barcha harakatlarini o‘zlashtirib, uy ro‘zg‘or yumushlari, mehmon kutish, muomala madaniyatini o‘rganadilar. Shuning uchun ham oilada yoshi kattalar o‘z hatti harakatlariga farzandlari dunyoga kelgach jiddiy e‘tibor

qaratadi. Bu haqida “Avesta”da ham “Yomon tarbiyachi o‘z ta’limi bilan ilohiy so‘zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi [6. –B.14]. “Ey Mazda! Tarbiya qilguvchilarning uchun atalgan, poyonsiz mehr, muhabbatingni ato ayta [6. –B.29]” deb, tarbiyachining avvalo o‘zining odob-ahloqi na’munali bo‘lishiga ishora qilinadi. Garchi bu qoidalar ming yillar oldin aytilgan va yozilgan bo‘lsada, hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Xalqimiz bekorga mehnatkash, yuksak axloq-odobli yigitchani ko‘rsa, «otangga rahmat», xush muamalali, go‘zal xulq-atvorli, shirinsuhan, muloyim, chevar, pazanda qizni ko‘rsa «onangga rahmat» deydi. Bu oila tarbiyasining shirin mevasi tufaylidir [5. –B.7].

Yuqoridagi fikrlarimizni dala tadqiqotlaridan olingan etnografik kuzatuvlarimiz bilan dalillaymiz. Xususan, Sirdaryo viloyati Guliston shaharchasida yashovchi Munira opa o‘z qiziga 6 yoshdan boshlab mayda uy-yumushlarini, masalan, dasturxon yozish, onasi yoki buvisi ishtirokida non tayyorlash, uy supurish, chang artish kabi ishlarni o‘rgatgani, qizlardagi ushbu mahoratlardan juda erta yoshdan boshlab shakllantirilishini isbotlaydi. Shu bilan birgalikda qizlar aynan shu yoshlardan boshlab, yaqinlariga ayniqsa oilaning erkaklari otasi, bobosi, amaki va tog‘alari bilan munosabatda cheklash holatlari kuzatiladi. Bu ijtimoiylashuvning jinsiy ilk bo‘linishlari hisoblanib, qizlardagi ibo-hayoning shakllanishiga olib keladi.

Ularga asosan tarbiyali qiz qanday bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar, xalq og‘zaki ijodi orqali singdirib boriladi. Misol uchun eng mashxur o‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lgan Zumrad va Qimmat ertagini olaylik. “Qimmat onasining aytganini qilmaydi, mehrsiz bo‘ladi, o‘zini yoqtiradi. Zumrad esa sabrli, odobli, har ishni chiroyli qiladi. Shuning uchun u yuksaladi [1. –B.112-117]”. Ertakdagi qaxramonlar orqali tarbiyali va tarbiyasiz qizlarni solishtirish va qanday natijaga erishganligini ertaklar vositasida o‘zlarida singdirib, jamiyatga asta moslashib boradilar. O‘zbek qizlariga beriladigan milliy tarbiya usullarida or-nomus masalasi eng ijobiy kuch sifatida baholanib, juda erta yoshdan boshlab, tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, yurish-turishi, begona erkaklar bilan muloqotda extiyot bo‘lishi o‘gitlar, ertak va qo‘shiqlar orqali singdiriladi. Shu tariqa

hali maktabga bormay turib, kundalik hayot, marosimlar, ogʻzaki odob ahloq qoidalari, pand-nasihatlar orqali ijtimoiylashuv jarayoni sekin-asta kuchaytirib boriladi.

Ijtimoiylashuvning keyingi bosqichi sifatida qizlarga 7 yoshdan boshlab sandiqqa kelinlik uchun sep yigʻib borish anʼanasi mavjud. Bu odat ham butun respublikamizda keng tarqalgan boʻlib, xalqimiz orasida “Yetti yoshdan tashlasang yetadi, olti yoshdan tashlasang ortadi” degan gap bor. Bu qizning sogʻlom ekanligi va oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni boshlangani haqidagi bir xabar ulardan biri hisoblanadi. Shuni aytish kerak-ki, hunar oʻrgatish orqali mehnat tarbiyasi kishining eng qadrli sifatlaridan biridir. Umuman olganda xalqimiz mehnat orqali kishida yaxshi xulq shakllanadi deb hisoblaydi. Mehnat insonda sabr toqatni rivojlantirib, xalq ichida obroʻ-eʼtibor qozonishiga sabab boʻladi. 19 yuziylik boshlarida yashagan Xoja Samarqand Termiziy ham mehnat tarbiyasi haqida shunday deydi “Hunar ahlini tarbiyalashga say-harakat qil, hunarsiz kishilarni otasining hunari, xizmati uchun xurmat qilma. Odamning qimmatini otasining shuxrati bilan emas, balki oʻz qobiliyati, hunari bilan belgilanadi [7. –B.93]”.

Shuningdek, “Qobusnoma”da ham qiz bolaning tarbiyasiga oid shunday fikrlar mavjud: “Agar qizing boʻlsa, uni mastura doyalarga topshirgʻil, toki yaxshi parvarish qilgʻaylar va kattaroq boʻlgʻondin soʻng muallimga topshirgʻil... Balogʻatga yetgʻondin soʻng harakat qilib erga bergʻil, unga shafqat va marhamat koʻrguzgʻil, nedinkim qiz otaning asiri boʻlur. Oʻgʻil otasiz boʻlsa ham bir ish talabiga bora olur va oʻzin maishatligʻ tutar. Qiz esa ojiz va bechora boʻlur. Har na boring boʻlsa, avval burun qizga bergʻil va uning asbobin tuzatgʻil. Tezroq uni bir kishining boʻyniga band etgʻil, toki uning gʻamidin qutulgʻaysan [3. –B.115]”. Oʻrta asrlarga tegishli ushbu manbadagi maʼlumotlardan qiz bola yordamga muhtojligi, ojizaligi, hamisha unga gʻamxoʻrlik qilish kerakligi, qizlarning aqliy rivojlanishiga ragʻbat koʻrsatish kerakligi alohida koʻrsatib oʻtilgan. Shuningdek uning baxti oʻz uyida emas, balki turmush oʻrtogʻining uyida ekanligi, uyiga mehmon va har ne boʻlsa uning ehtiyojlari oldin inobatga olinishi taʼkidlangan. Turmushga chiqishi borasida esa “Agar qizing erga

tegmagʻon boʻlsa, uylanmagʻon yigitga topshirgʻil, toki unga koʻngul bogʻlasin va ul bunga koʻngul bogʻlasin. Qizingni kanizakdek sotmagʻil, toki uning oʻzi muruvvat va hamiyat qoidasin qoʻldin bermagʻusidur. Sen har narsani qabul qilib, qizingni kuyovingning boʻyniga band qilgʻil va shuning bila qizingning ham mehnatidin qutulgʻil [3. –B.116]” deya uning haq huquqlarini, istaklari inobatga olish kerakligi uqtiriladi. Ammo, yaqin yillargacha qizlarning kimga turmushga chiqishi oʻz ixtiyorida boʻlmagan. Buni uning nomidan asosan otasi hal qilib, onasi orqali bu xabarni yetkazgan [12]. Bu orqali qizlarning huquqlari poy-mol etilishi salbiy holat sifatida baholanadi. Ammo oʻz taqdirini otasining qoʻliga ishonib topshirish ularning ibohayosining gultoji hisoblanadi. Qurʻoni Karimning “Al Isro” surasi, 24 oyatida “Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut-hokisor boʻl va “Parvardigorim, meni goʻdaklik chogʻimdan tarbiyalab-oʻstirganlaridek, sen ham ularga raxm-shafqat qilgin” deb haqlariga duo qil” deb aytiladi. Demak tarbiya – insonni voyaga yetkazish jarayoni boʻlib, bunda ota-onalarning xizmatlari alohida boʻlishi aytiladi. Ota-onani xurmatlash, eʼzozlash masalasida hech bir tuzum yoki tarbiya vositasi Islomga teng ham yaqin ham kelolmaydi [10. –B.214]. Yaqinlarini eʼzozlash va hurmat qilish masalasida islom dini benazir boʻlib, Qurʻon oyatlari buni tasdiqlaydi. Ayni kunlarda ham oʻzbek qizlarining aksariyat qismi kattalar tajribasiga ishongan holda ish tutmoqdalar.

Oʻzbek xalqining ijtimoiy-madaniy tuzilmasida qiz bolaning ijtimoiylashuvi, yaʼni uning jamiyatdagi rolini anglash va bu rolga ongli tarzda moslashuvi murakkab va koʻp bosqichli jarayon sifatida namoyon boʻladi. Bu jarayon biologik jins asosida emas, balki tarixiy, anʼnaviy, diniy va maʼnaviy omillar bilan shakllangan jamiyat tuzilmasi doirasida kechadi. Aynan shu sababli qiz bola dunyoga kelganidan boshlab unga nisbatan maxsus, genderga yoʻnaltirilgan ijtimoiy munosabatlar mavjud boʻlib, bu munosabatlar ijtimoiylashuvning ilk negizini tashkil etadi.

Qiz bola jamiyatda odob, hayo, itoat, sabr-toqat, mehnatsevarlik, or-nomus kabi fazilatlarning asosiy timsoli sifatida qaraladi. Bu qadriyatlar unga avvalo oilaviy

tarbiya, soʻngra esa ommaviy ong (ertaklar, maqollar, dostonlar) orqali singdiriladi. Misol uchun, "Zumrad va Qimmat", "Alpomish", "Goʻroʻgʻli" kabi xalq ogʻzaki ijodi namunalari qiz bola uchun qanday fazilatlar afzal koʻrilishini nafaqat hikoya qiladi, balki ideal obrazlar orqali uni ijtimoiy ongga etkazadi. Bu obrazlarda qiz bolaning ijtimoiylashuvi bir vaqtning oʻzida axloqiy, madaniy va estetik qadriyatlar bilan uygʻunlashgan holda tasvirlanadi.

Qiz bolalarga nisbatan mavjud boʻlgan meʼyorlar va rollar oʻzbek xalqining tarixiy tajribasi va ijtimoiy-madaniy xotirasida chuqur ildiz otgan. Bu qadriyatlar avloddan avlodga uzluksiz tarzda yetkazilib, oʻziga xos ijtimoiy sarmoya sifatida xizmat qilmoqda. Shu jihatdan qaralganda, qiz bolaning ijtimoiylashuvi orqali nafaqat ayol obrazining shakllanishi, balki jamiyatning oʻzini tiklashi, barqarorligi va maʼnaviy meʼyorlarini mustahkamlash mexanizmi ham yuzaga chiqadi.

Biroq, globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlari taʼsirida bu anʼanaviy ijtimoiylashtiruvchi tizimlar ham oʻzgarishlarga yuz tutmoqda. Bugungi kunda oʻzbek oilalarida anʼanaviy qadriyatlar bilan birga zamonaviy yondashuvlar — taʼlim orqali teng imkoniyatlar yaratish, individual erkinlik, kasb tanlash huquqi kabi gʻoyalar ham shakllanmoqda. Shu bois, qiz bolaning ijtimoiylashuvi zamonaviy oʻzgarishlar fonida yangicha mazmun kasb etmoqda. Ammo bu yangi qiyofa anʼanaviy rol modellarini inkor etmay, balki ularni qayta talqin qilishga ehtiyoj tugʻdirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek xalqida qiz bolaning ijtimoiylashuvi bu — jamiyatning oʻz axloqiy, estetik va ijtimoiy idealini yangi avlodga uzatish vositasidir. Bu jarayon etnik xotira, marosimlar tizimi, ogʻzaki folklor va madaniy meros orqali kechadi. Shu sababli, qiz bolalarning ijtimoiylashuvi faqat pedagogik yoki psixologik muammo emas, balki keng ijtimoiy-antropologik hodisa sifatida oʻrganilishi zarur boʻlgan murakkab madaniy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. "Oʻzbek xalq ertaklari", 1-jild. Toshkent: Fan, 1979. – 112–117-betlar.
2. Edward.C. Sachau.Alberuni. India. New York. Norton. 1971. 388 P.

3. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2016. 223 B.
4. Peter L. Berger. Thomas Luckmann. The Social Construction of Reality. New York. Anchor Books. 249 P.
5. Shadimetov M. O‘zbek va qozoq oilalarida ota-ona va farzand munosabatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOL. 4 / ISSUE 10. 2024. 7-bet.
6. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент. «Шарқ» 2001. 384 б.
7. Ж.Есонов таржимаси. Хожа Самарқанд Термизий. Дастур ул-мулук. Шарқ нашриёти. Тошкент. 2001. 351 Б
8. Убайдуллаева Б. Ўзбекларнинг бола тарбиясига доир анъаналари ва инновациялар (xx асрнинг иккинчи ярми - xxi аср бошлари). DSc. Тошкент. 2018. 21 б.
9. Ҳумоюннома Азимжонова С таржимаси. Тошкент. Маънавият. 1998 й. 92 б.
10. Шайх Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. Тошкент. Hilol nashr. 2017. 1-жуз. 637 Б.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_moslashuv.
12. Dala tadqiqotlari. Andijon. 2025 yil.
13. Dala tadqiqotlari. Buxoro. 2025 yil.
14. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/tarbiya-va-odat-haqida-maqollar>

СОЦИАЛИЗАЦИЯ УЗБЕКСКИХ ДЕВУШЕК: ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье рассматривается, что представляет собой процесс социализации, а также как он протекает у девочек в узбекских семьях. Особое внимание уделяется значению семьи в этом процессе, роли родителей,

дедушек и бабушек, что обосновано историческими данными. Также отдельно подчеркивается важность труда, разума и нравственного воспитания в процессе социализации.

Ключевые слова: национальное воспитание, семья, девочка, труд, социализация, устное народное творчество.

THE PROCESS OF SOCIALIZATION OF UZBEK GIRLS: AN ETHNOGRAPHIC PERSPECTIVE

Annotation. This article discusses the concept of socialization and how the process unfolds for girls in Uzbek families. It also aims to highlight the importance of the family in this process, particularly the roles of parents and grandparents, supported by historical evidence. The article emphasizes the significance of labor, intellect, and moral upbringing in the socialization process.

Keywords: national upbringing, family, girl, labor, socialization, oral folk tradition.